



## THE HISTORY OF CULTIVATION OF FINE-STAPLE COTTON VARIETIES IN UZBEKISTAN

***Khusnida Esonaliyevna Ergasheva***

*Doctor of Philosophy in History (PhD) Associate professor*

*Department of International Public Law*

*Tashkent State Transport University*

*E-mail: [ergasheva.xusnida@bk.ru](mailto:ergasheva.xusnida@bk.ru)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Fine-staple cotton, cotton industry, cotton ginning plants, spinning mills, white gold, G. barbadense L. cotton variety, Sea Island, Petit Gulf, Upland, Sugarloaf, Hogan, Veskts Shundret seed, Browns seed, Bonapa, Prout, Mastodon, Prolific, Multibolus.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** The article examines the challenges associated with the development of fine-staple cotton cultivation in our country by analyzing the historical and economic necessity of its introduction. It explores the history and significance of cotton production and processing, as well as its impact on other sectors of the economy. Dedicated to the history of cotton farming in Uzbekistan, the article is based on archival documents from the National Archives of Uzbekistan, scientific research by foreign and local scholars, monographs, and brochures. The study provides comprehensive conclusions regarding the subject matter.

## INGICHKA TOLALI PAXTA NAVLARINI O'ZBEKISTONDA YETISHTIRISH TARIXI

***Xusnida Esonaliyevna Ergasheva***

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

*Toshkent davlat transport universiteti*

*Xalqaro ommaviy huquq kafedrasini v.b.dotsenti*

*E-mail: [ergasheva.xusnida@bk.ru](mailto:ergasheva.xusnida@bk.ru)*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zl:** ingichka tolali paxta, paxta sanoati, paxta tozalash zavodlari, ip yigiruv zavodlari, oq oltin, G.barbadense L. g'o'za navi, Si-Aylant, Sea Island, Petit kulf,

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakatimizda ingichka tolali paxta navining etishtirish uchun yuza kelgan tarixiy-iqtisodiy zarurat masalasini o'rganish orqali bu sohaga e'tibor qaratilishi

Uplanda, Sugarloof, Hogan, Veskts Shundret seed, Browncs seed, Bonapa, Prout, Mastodon, Prolific, Multibolus kabi paxta navlari.

bilan bog'liq bo'lgan muammolar yoritilgan. Mamlakatimizda paxta yetishtirish uni qayta ishlanishi tarixi va ahamiyati hamda uning boshqa sohalarga ta'siri o'rganilgan. Maqola O'zbekiston Milliy Davlat arxivi fondlaridagi arxiv hujjatlari, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari, monografiya, risolalar asosida mamlakatimizda paxta yetishtirish tarixiga bag'ishlanib, mavzuga doir xulosalarni o'z ichiga oladi.

---

## ИСТОРИЯ ВОЗДЕЛЫВАНИЯ ТОНКОВОЛОКНИСТЫХ СОРТОВ ХЛОПКА В УЗБЕКИСТАНЕ

*Хуснида Эсоналиевна Эргашева*

*Доктор философии по истории(PhD),*

*и.о. доцента кафедры «Международное публичное право»*

*Ташкентского государственного университета транспорта*

*E-mail: [ergasheva.xusnida@bk.ru](mailto:ergasheva.xusnida@bk.ru)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** тонковолокнистый хлопок, хлопковая промышленность, хлопкоочистительные заводы, прядильные фабрики, белое золото, сорт хлопчатника *G. barbadense L.*, Си-Айленд (Sea Island), Петит кульф, Упланд, Шугарлоф, Хоган, Veskts Shundret seed, Browncs seed, Бонапа, Проут, Мастодон, Пролифик, Мультиболус.

**Аннотация:** В статье рассматриваются проблемы, связанные с вниманием к сфере выращивания тонковолокнистых сортов хлопка в нашей стране, через изучение историко-экономической необходимости их внедрения. Изучена история и значение производства и переработки хлопка, а также его влияние на другие отрасли экономики. Статья посвящена истории хлопководства в Узбекистане и основана на архивных документах из фондов Национального архива Узбекистана, научных изысканиях зарубежных и местных исследователей, монографиях и брошюрах. В работе представлены соответствующие выводы по данной теме.

---

O'zbekiston jahon bozorida o'zining "oq oltini" bilan tanilgan bo'lib, paxtachilik asrlar davomida mamlakat iqtisodiyotining strategik asosi bo'lib kelmoqda. Paxtaning ko'plab turlari orasida ingichka tolali g'o'za o'zining yuqori sifati, tolasining uzunligi va mustahkamligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu turdan olinadigan tola dunyo to'qimachilik sanoatida eng nafis va qimmatbaho gazlamalar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan bebaho xomashyo hisoblanadi.

O'zbekistonda paxta asrlar davomida yetishtirilib kelingan. Bu sohaga avvaldan e'tibor qaratilgan bo'lib, o'lkaning ko'p hududlariga paxta ekilgan. Chor Rossiyasi Turkiston o'lkasini egallagan vaqtda ham asosiy e'tiborni paxta sanoatini rivojlantirishga qaratgan. Jumladan, XX

asrning boshlarida mintaqaning asosiy mashg'ulotlari qishloq xo'jaligiga asoslangan bo'lib, Turkiston o'lkasining umumiy yer maydoni 1616 ming kv. km.ni tashkil qilgan. Hudud viloyatlar bo'yicha quyidagi jadvalda ko'rsatilgan holda taqsimlangan [1]:

#### Hududning viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi

Viloyatlar	Maydoni (ming kv. chaqirimda)	Aholisi (1907 yil, ming kishi)	Aholisi (1908 yil, ming kishi)
Farg'ona	122	1.572	1.950
Sirdaryo	549	1.478	1.725
Yettisuv	353	998	1.068
Samarqand	61	860	1.046
Kaspiyorti	532	382	454
Jami	1.616	5.281	6.243

XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasining viloyatlaridagi asosiy yer maydonlariga dehqonchilik mahsulotlari va shuningdek, ushbu hududlarning ko'plab maydonlariga paxta ekilib, hosil olingan. Bu davrda Turkiston o'lkasining eng ko'p paxta ekilgan maydoni Farg'ona viloyati hududlari hisoblanib, yildan yilga paxta ekiladigan maydonlar kengaytirilib borilganligini quyida keltirilgan jadval orqali kuzatish mumkin:

Paxta ekilgan yep maydoni (ming akr.)[1. – C.1.].

№	Viloyatlar	1908-1909	1909-1910	1910-1911
1	Farg'ona	455	544	808
2	Sirdaryo	64	71	79
3	Samarqand	59	50	59
4	Kaspiyorti	79	70	76
5	Jami:	657	735	1.022

Farg'ona viloyati hududi qishloq xo'jaligi uchun ayniqsa paxta yetishtirishga qulay bo'lganligi sababli bu hududda paxta maydonlari kengaytirilib borildi. Shu bilan birgalikda bu hududda paxta sanoati rivojlantirildi, ya'ni paxta tozalash zavodlari, ip yigiruv zavodlari bunyod etildi.

Paxta tozalash sanoati paxtachilik markazi — Fargʻonada eng yuqori rivojlanishga erishganini quyidagi jadvaldan koʻrish mumkin[1. – C.2.]:

Yillar	1888	1890	1893	1897	1899	1901	1910
Zavodlar soni	7	21	61	88	93	100	114

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, Fargʻona viloyatida 1910-yillarga kelib paxta tozalash zavodlarining soni ortib bordi. Bu esa sohaning yildan yilga rivojlanib borayotganini bildiradi.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasida paxtachilikni rivojlantirish uchun bir nechta omillar taʼsir koʻrsatdi. Birinchi omil sifatida AQSHda 1861–1865- yillardagi fuqarolar urushining yuzaga kelganligi va xalqaro siyosiy vaziyatning oʻzgarishi; ikkinchi omil esa 1882-yil Misrning Angliya tomonidan mustamlaka qilinishi kabilar oʻlkada yangi paxta navlarini joriy etish, paxta maydonlarini kengaytirish, paxtachilik sanoatini rivojlantirish va shuningdek, Rossiya sanoati uchun paxta xom ashyosi bazasini yaratish jarayonini yanada tezlashtirdi[2].

Shuningdek, yurtimizda paxta yetishtirishda gʻoʻzaning asosiy mahsuloti tolasiga va uning sifatiga qarab baholanadi. Shuning uchun Turkiston oʻlkasida gʻoʻzaning bir necha navlari ekilib sinovdan oʻtkazilgan. Paxta tolasining ingichka navbalaridan eng qadimgisi bu G.barbadense L. gʻoʻzasi hisoblanib, bu esa XX asrda eng yosh va plastik turi xisoblangan. Uni birinchi vatani Janubiy Amerika hisoblanib, bu turdagi paxta asosan, AQSHning orol boʻylari va tekisliklarida yetishtirilgan. Ushbu paxta navini Si-Ayland nomi bilan atalgan va dunyoga mashhur boʻlgan. Keyinchalik Si-Ayland gʻoʻza navlari Afrikaning shimolida joylashgan Misr davlatining Nil vodiylariga kirib keladi va uzun ingichka tolali Misr navlari sifatida keng maydonlarda yetishtiriladi[9]. Gʻoʻzaning bu navi Turkiston oʻlkasiga 1871-yilda birinchi marta olib kelinib, Toshkent atrofidagi yer maydonlariga Misr gʻoʻza navlari sifatida tajriba uchun ekiladi. Lekin bu sinov tajribasi yaxshi natija bermadi, yaʼni chigit va tolasi pishib yetilmadi. Shuning uchun bu tajriba toʻxtatildi. Shundan soʻng, yana 1912-1914-yillarda Fargʻona vodiysining “Malik” xoʻjaligida Misr navlaridan “Afifi” navi 300 gektarga yaqin yer maydoniga ekildi va buning natijasida paxta hosildorligi 4-6 sentnerni tashkil etdi[3]. Bundan koʻrinib turibdiki, Fargʻona viloyati yer maydonlariga tajriba sifatida ekilgan paxtaning Misr navlari samaradorligi yaxshi natija berdi. Shundan soʻng Fargʻona viloyatining koʻplab yer maydonlariga paxtaning ushbu navi ekila boshlandi.

Bundan tashqari, Turkiston oʻlkasida mahalliy dehqonlar tomonidan “gʻoʻza”, mustamlakachilar iborasi bilan esa “tuzemniy xlopok”, deb nomlanadigan paxta yetishtirilardi. Lekin, mahalliy paxta hosildorligi yuqori boʻlsa-da, uning tolasi qisqa, shakli sargʻish rangli,

navi past bo‘lib, Rossiya sanoat korxonalari Turkiston paxtasini qayta ishlashga moslashmaganligi sababli, Rossiya imperiyasi ta‘sirida bo‘lgan Polshaning Lodz shahridagi to‘qimachilik korxonalari Turkiston paxtasi hisobiga ishlardi. Shuning uchun ham Turkiston o‘lkasiga yangi paxta navlarini olib kelinib tajriba sifatida ekish zarurati yuzaga kelgan. Bunga misol qilib, hosildorligi o‘rta darajada bo‘lsada, tolasining mayinligi va uzunligi, mustahkamligi, shaklan momiq hamda oppoqligi bilan nom chiqargan “Amerika” (amerikancha) paxta navini Turkiston o‘lkasida iqlimlashtirish ishlari 1860-yillar oxiri – 1870-yillardan boshlangandi. Bundan tashqari, Turkiston o‘lkasida bir nechta paxta navlari yetishtirish yo‘lga qo‘yildi. Masalan, XIX asr oxirida Turkistonda paxtaning mahalliy va xorijdan keltirilgan 12 ta navi ekilib hosil olingan[2. 21-b.]. Paxtaning bu navlari Turkiston o‘lkasining turli viloyatlariga ekilgan.

Jumladan, Sirdaryo viloyatining Toshkent uyezdi yer maydonlarida 1869-yilda ilk bor Amerikaning “Sea Island” nomli paxta navi plantator N.N.Rayevskiy tomonidan sinovdan o‘tkazildi. Lekin, ushbu paxta navidan kutilgan miqdorda hosil olingan bo‘lishiga qaramasdan, 1872-yil Moskva politexnika instituti ko‘rgazmasi ekspertlari tomonidan bu navli paxta tolasini yaroqsiz deb topildi, uning tola mustahkamligi mutlaqo talabga javob bermasligi qayd etildi. Chunki bunga sabab hali quruq iqlim sharoitida yangi navli paxtadan hosil olish ilmi va tajribasi dehqonlarda yetarli bo‘lmagandi. Shundan so‘ng, Amerikadan keltirilgan yangi “Uplanda” (Uplanda) urug‘ navi sinovdan o‘tkazildi. “Uplanda” paxta urug‘lari XIX asr boshlarida Meksikadan AQSHning Missisipi shtatiga olib kelingan. Ushbu nav “Petit kulf” yovvoyi chigit urug‘i navi asosida olingan. Keyinchalik “Uplanda”ning tanilgan “Sugarloof”, “Hogan”, “Vesks Shundret seed”, “Brown seed”, “Bonapa”, “Prout”, “Mastodon”, “Prolific”, “Multibolus” kabi o‘nlab navlari yaratildi[4]. Ushbu paxta navlarining tolasini sifatli, tez pishib yetiladigan, hosildorligi yuqori bo‘lgan. Shuning uchun ham ushbu paxta navlari Turkiston o‘lkasida sinovdan o‘tkazilib, yetishtiriladigan bo‘ldi.

Bundan tashqari, Turkiston o‘lkasida mahalliy paxta navlarini ham yetishtirilgan. O‘rganilgan ko‘plab materiallarda va maqolalarda keltirilishicha, mahalliy paxta navi (g‘o‘za)ning hosildorligi ham baland bo‘lib, XX asrning boshlarida 1 desyatina yerdan o‘rtacha 80 pud, yuqori natijaga erishilgan hatto 100–110 pudgacha hosil olingan. Lekin, tabiiy ofat, garmsel, havoning sovuq kelishi, hasharot bosishi, qurg‘oqchilik, sun‘iy sug‘orish inshootlarining o‘z salohiyatini yo‘qotishi yoxud o‘z vaqtida ta‘mir etilmasligi kabi ko‘plab omillar tufayli paxta hosildorligi 1 desyatina yerdan o‘rtacha 20–40 pudga tushib ketgan[5]. Jumladan, 1907-1908-yillarda Samarqand viloyatida paxta hosildorligida past natijalar kuzatilgan. “Amerika” paxta navidan hosildorlik 1 desyatina yerga 55–60, ayrim hollarda 75–80

puddan oshmaganligi kuzatilgan. Lekin, yuqorida ta'kidlanganidek, "Amerika" paxta navi bozorda sifati oliy, narxi baland baholangan[6]. Shuning uchun paxtaning bu navini o'lkada yetishtirishga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, paxta sanoatiga bo'lgan e'tibor sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng yanada ortdi. Buni, O'zbekiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyevning tanlangan asarlarida keltirilgan ma'lumotlaridan ham bilish mumkin. Unda 1915-yilda O'zbekistondagi 1 million 309 ming gektar sug'oriladigan yerning 531 ming gektariga paxta ekilganligi haqida ma'lumot berilgan. 1916, 1918, 1921, 1923-yillarda Turkiston o'lkasida paxta yetishtirish va hosil olish avvalgi yillarga nisbatan kamyib bordi. Bunga bir nechta omillar sabab bo'lgan. I jahon urushi, Rossiyadagi davlat to'ntarilishining amalga oshirilishi, o'lkadagi vaziyat, istiqbolchilik harakatining olib borilishi natijasida o'lkada boshqa sohalar kabi paxta sanoatiga ham ta'sir ko'rsatgan. Bu sohaning rivojlanishiga birinchi besh yilliklarda e'tibor qaratildi. Masalan, 1924–1925-yillarda 1 million 243 ming gektar sun'iy sug'orishga asoslangan hududlardan 556 ming gektariga paxta ekilgan bo'lsa, 1928–1929-yillarda 1 million 764 ming gektar yerning 714 ming gektari paxta maydonlariga ajratilgan bo'lib, 1915-yil bilan taqqoslaganda paxta hosildorligi 139,9 foizga oshgan. 1929-1930-yillarda O'zbekistonda yetishtirilgan paxta 56 million pudni tashkil etib, undan 18,5 million pud tola olingan"[7]. Yuqoridagi raqamlar sovet hokimiyatining dastlabki yillaridanayoq paxtachilikka asosiy e'tibor qaratilib, paxta hosildorligini oshirish, paxta maydonlarini kengaytirilganligini ko'rsatadi. Buning uchun anhorlar qazish, sun'iy sug'orish tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, bu jarayon birinchi besh yilliklarda amalga oshirilgan. Natijada 1926-1930-yillarda paxtachilikda hosildorlik o'rtacha har bir gektar yerdan 20 sentnerni, 1935-yilda 22 sentnerni (1939 yilda hosilsizlik bo'lib, 16 sentner) tashkil etgan bo'lsa, 1939-yilga kelib, bir gektar yerdan o'rtacha 26 sentner paxta xom ashyosi olish vazifasi belgilangan. Shuningdek, ushbu yillarda har bitta ko'sakni saqlab qolish uchun kurash kompaniyasi boshlanib, agar bir gektar yerda 80 ming tup g'o'za undirilsa, har bir tup g'o'zada bittadan ortiqcha ko'sak yetishtirilsa, chanog'i 4 gramm bo'lgan, paxta dalasidan 3,5 sentner qo'shimcha paxta hosili olish masalasi kun tartibiga dolzarb qilib qo'yilgan[8]. Yuqoridagi holatdan kelib chiqib, 1930-yillardan paxtaning tezpishar, vilt kasalligiga qarshi yangi navlarini yaratish, mahalliy g'o'za navlari hisoblangan qora, ko'k, sariq chigit va Amerika eski navlari o'rniga yangi urug'larni yaratish borasida amaliy qadamlar qo'yilganligini kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda qadim davrlardan boshlab paxta yetishtirish ishlari amalga oshirilgan. Turkiston o'lkasida paxta yetishtirishga bo'lgan e'tibor ayniqsa, Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni egallagandan so'ng qaratildi. Turkiston

o'lkasining ko'plab yer maydonlariga paxta ekish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi sanoatini rivojlantirish uchun paxtaning turli navlari olib kelinib, sinov tariqasida ekildi va yaxshi natijalarga erishildi. Jumladan, Amerika, Misr paxta navlari Turkiston o'lkasining ko'plab yer maydonlariga ekildi va yuqori hosildorlik olindi. Lekin yuqorida ta'kidlanganidek, paxta hosildorligi 1916,1918, 1921,1923-yillarda yaxshi bo'lmadi. Bunga bir nechta omillar sabab bo'lgan. Bu sohaning rivojlanishi 1924-yildan boshlab yanada e'tibor qaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Митинский А.Н. Топливо в Туркестан. Навлечено изъ „Гори. Журн.“, №7.1912. – С.1.
2. Haitov J.Sh. O'zbekistonda paxta yangi navlarining yaratilish tarixidan:yutuq va muammolar./Tarix ilmiy xabarnoma.2022. №7 (67). – B.21.
3. Nazarova F.I. Ingichka tolali g'o'za navlarini yaratish – davr talabi.// Tarix ilmiy xabarnoma.2022. №7 356-b.
4. O'z MA, R -2284-fond, 1-ro'yxat, 892-yig'majild, 4-5-varaqlar.
5. O'z MA, R 2284, fond, 1-ro'yxat, 892-yig'majild, 110-varaq.
6. O'z MA, R-86-fond, 1-ro'yxat, 122-yig'majild, 109-varaq.
7. Oxunboboyev Y. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O'zbekiston, 1976. – B. 94.
8. D.T.Yakubova “O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari”.
9. Yoqubova D.Yo. Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxtadan yuqori hosil olish agrotexnikasining rivojlanishda M.S.Istominning faoliyati.// academic research in educational sciences. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. P.1804.